

TAQDIMOT SLAYDLARINI YARATISH BO'LIMINI O'QITISH METODIKASI

Yusupova Sabina Oybek qizi

SHDPI Matematika va informatika yo'nalish talabasi

Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna

SHDPI katta o'qituvchisi.

Negmatova Sevinch Ergash qizi

Qarshi davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16600575>

Annotatsiya. Mazkur maqola taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha o'qitish metodikasining ahamiyatini va zamonaviy ta'lim tizimidagi rolini tahlil qiladi. O'qitish jarayonida taqdimot slaydlarining samarali yaratish usullari, vizual dizaynning muhimligi va texnologiyalardan foydalanishning zarurligi muhokama etiladi. Taqdimot slaydlarini yaratish orqali o'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lishadi, balki kreativ fikrlash va kommunikatsiya ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Maqolada interaktiv va amaliy metodlarning o'quvchilarning taqdimot yaratish jarayoniga ta'siri, shuningdek, pedagogik metodlarni takomillashtirish ko'rsatib berilgan. Ushbu tadqiqot taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha metodik yondashuvlar o'qituvchilarning ham malakasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Taqdimot slaydlarini yaratish, o'qitish metodikasi, interaktiv metodlar, vizual dizayn, ta'lim texnologiyalari, kreativ fikrlash, kommunikatsiya, o'quvchilar, taqdimot, pedagogik metodlar, slayd dizayni, ta'lim jarayoni, animatsiya, ta'lim innovatsiyalari, PowerPoint.

Kirish

Taqdimot slaydlarini yaratish bo'limi zamonaviy o'quv jarayonida alohida o'rin tutadi. Ushbu bo'limda talabalarga slaydlarni samarali yaratish, ular orqali fikrni aniq va ravon ifodalash, ma'lumotlarni taqdim etish va auditoriyani jalb qilish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Taqdimot slaydlarini yaratish – bu faqat vizual material tayyorlash emas, balki aniq va tushunarli fikrlarni qisqa va lo'nda shaklda taqdim etish, so'z va tasvir o'rtasida to'g'ri muvozanatni topishdir. Bunday taqdimotlar nafaqat ta'lim muassasalarida, balki ishbilarmonlik, ilmiy tadqiqotlar, jamoat sohalarida ham keng qo'llaniladi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan taqdimotlar, audio-vizual vositalar va interaktiv elementlarni o'z ichiga olgan ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu o'zgarishlar esa, o'qituvchilar va o'quvchilardan yanada yuqori darajadagi texnologik savodxonlikni talab qiladi. Ta'limda taqdimot slaydlarini yaratish metodikasi asosida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning bilimini rivojlantirish va ularga taqdimotlarni ishlab chiqishning texnik va estetik jihatlarini o'rgatish zaruriyati yuzaga keltiradi. Shu bois, taqdimot slaydlarini yaratish metodikasi o'quv jarayonida alohida o'rin tutadi, chunki u o'quvchilarni nafaqat texnologik jihatdan tayyorlaydi, balki kommunikativ va kreativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Taqdimot yaratish metodikasining asosiy maqsadi – bu nafaqat tasvirlar va matnni to'g'ri joylashtirish, balki ularni mantiqiy va estetik jihatdan o'quvchi yoki tinglovchi tomonidan oson qabul qilinadigan tarzda birlashtirishdir. Yaxshi taqdimot slaydi – bu vizual jihatdan jozibador bo'lib, auditoriyaning e'tiborini jalb qilishi va ularni taqdimotning asosiy g'oyasiga yo'naltirishi kerak bo'ladi. Bunday slaydlar o'quvchilarning ma'lumotni tezda anglab

olishlariga yordam beradi, bu esa ta'limning samaradorligini oshiradi. Taqdimot slaydlarini yaratish turli darajadagi o'quvchilar uchun turli metodik yondashuvlarni o'ylab topishga undaydi. Shu bilan birga har bir o'quvchi ham o'zining bilimi va kreativligiga qarab taqdimotlarni yaratishga harakat qiladi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Mavzuda oid adabiyotlar tahlili. Taqdimot slaydlarini yaratish bo'limini o'qitish mavzusida adabiyotlar tahlilini olib borish, o'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash va rivojlantirish jarayoniga oid ko'plab ilmiy fikrlarni o'rganishga imkon beradi.

Richard E. Mayer, multimedia o'rgatish metodikasi bo'yicha bir qancha asarlarni yaratgan olim. "Multimedia Learning" nomli kitobida slaydlar yordamida ta'limni qanday samarali o'rgatish mumkinligini tahlil qilgan. Mayerning "multimedia prinsipi"ga ko'ra, taqdimotlarda matn va rasmlar o'rtasida to'g'ri muvozanat o'rnatish zarur. U shuni ta'kidlashicha, slaydlarda matnni qisqartirish, faqatgina asosiy fikrlarni ta'kidlab o'tish kerakligi haqida fikr yuritilgan. [1]

Edward Tufte o'zining "The Visual Display of Quantitative Information" asarida slaydlar yaratish va vizual ma'lumotlarni taqdim etishning estetik jihatlarini tahlil qilgan. Tufte grafikalar va slaydlar yordamida murakkab ma'lumotlarni qanday qilib oddiy va tushunarli tarzda taqdim etish kerakligini ko'rsatib bergan. Uning fikriga ko'ra, slaydlar ortiqcha dizayn va murakkabliklarga ega bo'lmagan holda yaratilsa, ma'lumotlarni o'quvchilar tezroq tushunib olishadi degan ma'lumotlarni keltirgan. [2]

B. Usmonov o'zining "Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar" asarida taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha metodik yondashuvlarni tahlil qilgan. Usmonov ta'kidlashicha, taqdimotlarda slaydlarni yaratish o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda vizual materiallar tanlash kerakligi, shuningdek, taqdimotlarda axborotlarni tizimli tarzda, sodda va aniq ifodalash muhim ekanligini aytib o'tgan. [3]

A. Yusupovning "Kompyuter texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash" nomli asarida taqdimot slaydlarini yaratishda kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish metodikasi haqida o'z fikrini bildirgan. Olim, shuningdek, slaydlarni yaratishda dizayn va ma'lumotlarni oddiy va sodda usulda yoritib berish zarurligini aytib o'tadi. Uning nazarida, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarni ko'proq jalb qilish va ularning qiziqishini oshirish mumkinligi haqida o'z fikrini bildirgan. [4]

Metod. Taqdimot slaydlarini yaratish metodikasi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni bo'yicha so'nggi yillarda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu sohada ko'plab xorijiy va o'zbek olimlari taqdimotlarni yaratish texnikalari, dizayn prinsiplari va ularni o'qitishda qanday metodik yondashuvlar qo'llanilishini tahlil qilib kelishmoqda. Ushbu olib borilayotgan tadqiqotlar bo'yicha taqdimot slaydlarini yaratish haqida ko'pgina olimlarning qilgan ishlari hamda fikrlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu tadqiqotning dars jarayonlariga qanchalik ta'sir qilishini bilib olamiz.

1. Loyiha asosida o'qitish. Ushbu metodda o'quvchilar real dunyo vazifasiga o'xshash taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha loyiha ishlab chiqadilar. O'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir mavzuda taqdimot tayyorlashni topshiradi va ularni slaydlarni yaratish jarayonida qo'llab-quvvatlaydi. Bu metod o'quvchilarga taqdimot slaydlarini yaratish jarayonida mustaqil fikrlash va kreativlikni rivojlantirish uchun yordam beradi. Bu metodda o'quvchilar o'z

bilimlarini amaliyotda qo'llashni, jamoada ishlash va taqdimot tayyorlash ko'nikmalarini o'zida shakllantiradi. O'quvchilarga zamonaviy ilm-fan yoki tarixiy voqealar haqida taqdimot tayyorlash topshirig'ini bersak, slaydlar yaratishda mavzu bo'yicha ma'lumotlar topishadi, hamda shu bilan birga topgan ma'lumotlarini o'rganadilar.

2. Demonstratsiya asosida o'qitish. O'qituvchi taqdimot slaydlarini qanday yaratish, dizayn va texnik jihatlarni qanday amalga oshirish haqida ko'rsatmalar beradi. Taqdimotning turli jihatlari, masalan, ranglari, shriftlari, grafikalar va vizual elementlar to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Bu metodda o'quvchilar taqdimot slaydlarini yaratishning to'g'ri usullarini hamda slaydga qanday dizaynlar berish kerakligi haqida bilimlarga ega bo'lishadi. Bu metod ham o'quvchilarning kreativligini va fikrlashini shakllantirishga juda katta yordam beradi.

3. Tahlil va muhokama. Bu jarayonda o'quvchilar tayyorlagan taqdimot slaydlarini tahlil qiladilar, bir-birlari bilan ma'lumot almashadilar, butun sinfning e'tibori taqdimotda bo'ladi, chunki barcha taqdimotlarda bir-biridan qiziq malumotlar hamda dizaynlar bo'ladi. Ushbu metod o'quvchilarga slaydlar yaratishda xatolarni aniqlash, ularni tuzatish, Kreativ fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Kollaborativ o'qitish. Bu jarayonda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda birgalikda taqdimot slaydlarini birgalikda yaratadilar. Har bir guruh ma'lum bir mavzu bo'yicha slaydlar yaratib, umumiy yakuniy taqdimotni amalga oshiradi. Bu metod guruhda ishlashni, fikr almashishni va birgalikda ishlashni rag'batlantiradi. Metod jamoada ishlash va kommunikatsiya ko'nikmalarini hamda birgalikda yaratish va fikr almashish o'quvchilarning ijodiy yondashuvini oshirishni rivojlantiradi.

5. Interaktiv o'qitish. Ushbu metodda o'quvchilar interaktiv vositalar yordamida slaydlar yaratish bo'yicha bilimlarini mustahkamlashadi. Masalan, onlayn taqdimot dasturlari PowerPoint, Prezi, Canva dasturlari orqali o'zlari slaydlar yaratib, ular bilan interaktiv tarzda ishlaydilar. O'qituvchi esa onlayn vositalarning afzalliklarini ko'rsatadi va ularning samarali ishlatilishini nazorat qiladi.

Muhokama. Taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha metodikalarni o'qitish sohasida ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning taqdimotlarni yaratish, strukturasi, vizual dizayni va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida taqdimot slaydlarini yaratish nafaqat texnik jihatdan, balki pedagogik va kreativ yondashuvlardan ham foydalanishni talab qiladi.

Birinchidan, taqdimot slaydlarini yaratishning asosiy metodikasi interaktiv o'qitishga asoslanadi. Taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha o'qitishda, o'quvchilarga nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ularni auditoriya bilan aloqada bo'lish, ma'lumotlarni aniq va lo'nda tarzda taqdim etish ko'nikmalarini ham o'rgatish zarur. Interaktiv usullar yordamida talabalar o'zlarining fikrlarini va g'oyalarini yanada yaxshi va aniq ifodalashga o'rganadilar.

Ikkinchidan, taqdimot slaydlarini yaratish metodikasida texnologiyalarni samarali qo'llash alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda slaydlar yaratish uchun turli onlayn platformalar, masalan, PowerPoint, Prezi, Canva, Google Slides kabi vositalar mavjud bo'lib, ushbu vositalar yordamida o'quvchilar interaktiv elementlar, animatsiyalar va dizaynlarni yaratish, shuningdek, slaydlarni boshqalar bilan ham muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Slaydlarda matnning minimal bo'lishi, ranglar va grafik elementlarning mos ravishda ishlatilishi, ma'lumotlarning aniq va oson qabul qilinishini ta'minlab beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, taqdimotlarni yaratish bo'yicha o'qitish metodikasi ko'plab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bularning eng muhimi, o'qituvchilar tomonidan slaydlarni yaratish bo'yicha asosiy tamoyillarni aniq tushuntirishning yo'qligi. Ko'plab o'qituvchilar taqdimotlarni yaratishda faqatgina texnik jihatdan qanday foydalanishni ko'rsatadilar, lekin slaydlarning dizayni va auditoriya bilan aloqani qanday o'rnatish haqida yetarlicha ma'lumot bermaydilar. Bu esa o'quvchilarning taqdimotlari samarali bo'lmasligiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz joizki, taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun o'qituvchilar o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari judayam zarur. Yangi texnologiyalar, dizayn tamoyillari va taqdimot qilish usullari bo'yicha o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalarini yangilab borishi talab qilinadi. Xorijiy va o'zbek olimlarining ilmiy ishlaridan ko'rinib turibdiki, taqdimot slaydlarini yaratish metodikasi nafaqat texnik bilimlarni, balki vizual dizayn, kommunikatsiya va pedagogik yondashuvlarni ham o'z ichiga oladi. O'qituvchilar taqdimotlar yaratishda faqat texnologik vositalardan foydalanibgina qolmasdan, ular orqali o'quvchilarga aniq va samarali ma'lumotlar ham berishi zarur. Mukammal tashkil etilgan taqdimot slaydlarini yaratish jarayoni, o'quvchilarni nafaqat ta'limda, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatida ham muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Taqdimot slaydlarini yaratishda, o'qituvchilar interaktiv va vizual metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarni nafaqat texnik jihatdan, balki vizual dizayn va auditoriya bilan muloqot qilishni o'rgatadilar. Dasturlar va onlayn platformalar yordamida taqdimotlarni yaratish o'quvchilarga yanada qulayliklar yaratishini, shu bilan birga, taqdimot slaydlarini yaratish bo'yicha metodik yondashuvlar o'quvchilar uchun individual va guruh ishlarini, kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Taqdimot slaydlarini yaratishni to'g'ri o'rgatish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, hamda o'quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashga yordam beradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жовлиева, Гульшаной. "DISTINCTIVE FEATURES OF TEACHING STUDENTS OF THE PEDAGOGICAL INSTITUTE METHODS USED IN MATHEMATICS LESSONS." *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок* 1.3 (2025): 96-100.
2. X.Boqiyev G.A.Jovliyeva, Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda matematika fanini o'qitish texnologiyasi, xalq ta'limi, 2024/12, 79-81.
3. G. Jovliyeva, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv usullari, *Pedagogs*, 2023/6, 8-10.
4. Г.А. Жовлиева, Differensial tenglamalarga oid tushunchalarni o'qitishning o'ziga xosligi, Belarus international scientific research conference, 2023/6, 2023/6.
5. Gulshanoy Jovliyeva, Methodological-mathematical training of primary school teachers and duties, *Pedagogs*, 2023/2, 166-168.

6. Mirzayeva, Shahlo Ruzmat-qizi. "The importance of studying emotional intelligence in medical students." *Journal of Innovation, Creativity and Art* (2023): 215-220
7. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Talabaniing kreativ qobiliyatini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish (Aniq fanlarni o'qitish misolida), Xalq ta'limi, 2024/2, 2024/2.
8. Dilobar Kuchkarovna Xoshimova, Directional derivative and gradient of a multivariable function, International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, 2024/1/26, 1-9.
9. Khoshimova, D. "THE USING OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING EXACT SCIENCES AND FORMING THE STUDENT'S CREATIVE ABILITY." *Science and innovation* 3.B1 (2024): 5-13.
10. K.Z.Negmatova I.N.Ro'zimurodov, D.K.Xoshimova, Ehtimollik va statistika, 2024, 156.
11. Khoshimova. D.K, Use of pedagogical technology in explanation of the Gauss-Jordan method of solving the system of linear equations, WEB OF SCIENTIST, 2024/1, 50-54.
12. Raxmatov, Sherqo'zi Olimovich. "masofaviy ta'lim dasturlarining ta'lim tizimida afzalliklari va amaliy ahamiyati (moodle, scorm, tutor dasturlari misolida)." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.11 (2021): 1263-1270.
13. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, O'ZBEKISTON ELEKTRON SAVDO TIZIMIDA MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR, Science and innovation in the education system, 2024/4/8, 16-22.
14. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI VA UNING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI, Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2024/4/8, 11-14.
15. Gulnoza Raxmatov Sherqo'zi Olimovich, Berdiyeva, Raimbek Muzaffarov, ELEKTRON TIJORATNING AN'ANAVIY SAVDO TURLARI BILAN XARAKTERLI XUSUSIYATLARI, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024/4/8, 14-18.
16. Raxmatov Sherqo'zi Akbar Kodirov, Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi, Pedagogis Internatsional research, 2023/5/15, 69.
17. Kodirov, Akbar, Gulzor Qamariddinova, and Shahnoza Eshmurodova. "O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRUVCHI IQTISODIY VA MOLIYAVIY OMILLARINI O 'RGANISH." *YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI* 1.01 (2024).
18. Akbar Kodirov, Farangiz Kenjayeva, Marjona Yusupova, MAKTABLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ANIQ FAN MAVZULARINI OTISHDA ERISHILAYOTGAN YUTUQ VA KAMCHILIKLAR, Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2024, 49-52.
19. Kodirov, Akbar Shuxratovich, and Muborak To'Lqin Qizi Nomozova. "MASOFAVIY TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLI ASOSLARI." *Academic research in educational sciences* 4.CSPU Conference 1 (2023): 753-756.
20. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "ELEKTRON QO 'LLANMALAR YARATISHDA AUTOPLAY DASTURIDAN FOYDALANISH VA IMKONIYATLARINI TA'LIM TIZIMDA TALQIN ETISH." *Наука и технология в современном мире* 3 (2024): 51-55.

21. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "KATTA MA'LUMOT BAZALARINI PARALLEL ISHLOV BERISH USULLARINI VA MODELLARINI O'RGANISH." *Journal of new century innovations* 43 (2023): 93-95.